

---

**Hurmatli fuqarolar! Mamnuniyat bilan Tashabbusli budget jarayonining joriy yilgi 2-mavsumi 17-iyuldan (soat 10:00 dan) boshlab o'tkazilishini ma'lum qilamiz!**

Bunga ko'ra, 1-bosqich - fuqarolar tomonidan loyihalarni shakllantirish jarayonlari 17.07.2023 - 06.08.2023 davomida;2-bosqich - loyihalarni maxsus komissiya tomonidan saralab olish jarayonlari 06.08.2023 - 26.08.2023 davomida;3-bosqich - loyihalarga ovoz berish jarayonlari 26.08.2023 - 15.09.2023 davomida o'tkaziladi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu mavsum uchun tuman (shahar) budgetlari hisobidan 1 trln so'mdan ortiq mablag'lar yo'naltirilishi kutilmoqda (mazkur mablag'lar mavsum yakuniga qadar ortib boradi).

O'z hududingizdagi mavjud muammolarni hal etish yuzasidan tashabbus ko'rsating, faol bo'ling!

2023-07-14 17:38:43